



## UMUMTA'LIM MAKTABLARI IMIJINI SHAKLLANTIRISHDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASH MASALALARI

*Usmonova A.T.*

*A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Tayanch soʻzlar:** ta'lim, inson kapitali, imij, imijni shakllantirish.

**Ключевые слова:** образование, человеческий капитал, имидж, формирование имиджа.

**Key words:** education, human capital, image, image formation.

Maktab – koʻplab ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda ishlashi bilan ijtimoiy-pedagogik tizim hisoblanadi. Uning tashqi koʻrinishi ahamiyati doim ham zarur boʻlgan boʻlsa, bugungi ijtimoiy madaniy rivojlanish davrida bu masala yanada dolzarflik kasb eta boshladi. Zamonaviy ishlab chiqarish tezkor rivojlanayotgan jamiyatda ta'lim, fan va madaniyat asosiy “ishlab chiqarish” resurslari hisoblanadi. Ta'lim madaniy va intellektual salohiyatni yetishtiruvchi, inson kapitalini koʻpaytiruvchi, ijtimoiy jarayonlarda yangi jamiyat, yangi hayot yaratuvchi, kelajakka sarmoyadir. Innovatsion dasturlarning davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi, umumta'lim maktablarining toʻliq texnik jihozlanishi, ilgʻor oʻqituvchi va iqtidorli oʻquvchilarning ragʻbatlantirilishi mamlakat kedajagiga befarq qaralmayotganligining koʻrinishi deyish mumkin. Bugun jamoatchilik tomonidan maktab ta'limini rivojlantirishga katta qiziqish bildiridayotgani, ta'lim tizimini rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlayotgani diqqatga sazovor. Mazmunan boy, qiziqarli, jozibador maktab hayoti sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning zaruriy omiliga aylandi [1]. Maktab haqidagi yangi tasavvurda bu nafaqat oʻquvchilar kelib-ketadigan, darslarda zerikishni his qiladigan, bitiruv hujjatini oladigan maskan, balki, oʻquvchini mustaqil hayotga tayyorlash, uning maktabdan keyingi faoliyatida muvaffaqiyatiligini stimullovchi maskandir. U oʻquvchilar uchun madaniy va ilmiy markaz, qiziqishlar klubi, oʻz imkoniyatlarini va oʻz-oʻzini kashf qilish hududidir. Har bir maktab murakkab, rang-barang olam, jamoatchilik nazdida boshqalardan

farq qiluvchi o'ziga xos ko'rinishga ega muassasadir. Zamonaviy boshqaruvda bu imijni ifodalaydi.

Keng ma'noda imij tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ma'lum ob'ektning tabiiy va maxsus sifatlari yig'indisi, deb izohlangan bo'lsa, tor ma'noda esa, imij – ongli ravishda anglashilgan qiyofa tasviri, o'z qadriyatlariga ega bo'lgan, maqsadga yo'naltirilgan va hissiy idrok etilishiga olib keladigan, uni yaratuvchilar uchun munosabat bildirish va baxo berish imkonini yaratadigan ob'ekt [2]. Shu asosda rahbar munosib darajada ob'ekt boshqaruv faoliyatini ifodalaydi – ta'lim muassasasi tegishli obrazlar yig'indisi va ular asosida muvofiq qarorlar qabul qiladi. Agar imijning shakllantirilganlik xolatida namoyon bo'lishini hisobga olsak, ko'pchilik tadqiqotchilar ma'lum resurslar asosida rejalashtirilgan imijni yaratish jarayonini anglaydilar.

Ta'lim xizmatlari bozorida raqobatga asoslangan imijni shakllantirishda maktab o'quvchilarining ta'limdan yuzaga kelgan natijadorligi asosiy ko'rsagich hisoblanadi. Samarali natijaga erishishda maktab ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, sog'lom ta'lim muhiti yaratishga erishish muhim. Bu faoliyatda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, sifatli ta'limdan teng foydalanish imkonini yaratish;

o'quvchilar bilim darajasining DTS talablariga mos ravishda bo'lishiga erishish;

ta'lim texnologiyalari va mazmunini takomillashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish;

ta'lim muassasasining o'quv va moddiy bazasini yangilab borish;

muassasada sog'liqni saqlash tadbirlari tizimini rivojlantirish, o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shallantirish;

o'quvchilarning potentsial qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish;

havfsiz ta'lim muhitini ta'minlash shart-sharoitlarini yaratish;

moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish;

ta'lim boshqaruvida ijtimoiy-siyosiy tizimni takomillashtirish.

Davlatning strategik maqsadlarga erishishdagi asosiy omil inson imkiniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u asosan ta'limning sifati va rivojlanishi bilan belgilanadi. Bunda yaqin va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish istiqbollari ta'minlanadi. Ta'lim tizimi boshqaruvining asosiy muammosi ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan talablarni amalga oshirishda tajriba va malakali kadrlar ega ega bo'lish hisoblanadi. So'ngi yillarda kadrlar siyosatida bir muncha ilgarilash kuzatilmoqda, bu ta'lim muassasasiga pedagog va rahbar kadrlar tayyorlash, ularning mehnatini rag'batlantirish, malakasini oshirish



rahbari, pedagog, o'quvchilardagi insoniy fazilatlar, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar ruhini singdirish, kelajakka ishonch hissini rag'batlantirish masalasi turadi.

O'quvchilar iqtidorini aniqlashni tizimli tashkil qilish, maktabda ijodiy muhit yaratish, har bir bolaning qobiliyatini yuzaga chiqarish, rivojlantirish, rag'batlantirish va yutuqlarni qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshirish lozim [4]. Bunda shahar va tumandagi barcha ta'lim muassasalari faol ishtirokida bir qator yo'nalishlarda (fan, madaniyat, sport, san'at, hunarmandchilik va b.) maktablararo va tuman, viloyat, shahar miqiyosida tanlov va festivallar tashkil etish. Maktab o'quvchilarining turli mahalliy va xalqaro konferensiya, seminar va loyihalarda ishtiroklarini rag'batlantirish yaxshi samara beradi. Bu kabi ishlarni amalga oshirishda mahalliy boshqaruv organlarining ta'lim muassasasi imijini shakllantirishga ta'sirini quyidagicha namoyon bo'ladi:

mahalliy boshqaruv organlari tomonidan ta'lim muassasalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratilishi ta'lim texnologiyalari sifatini oshirishga va muvofiq ravishda kasbiy faoliyat samaradorligiga, jamiyat rivojlanish bosqichlariga mos inson kapitalini o'stirishga yordam beradi;

tuman, shahar, viloyat miqiyosida ta'lim xizmatlari bozori talablari asosida ta'lim muassasalarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini taqdim eta borishi, bunda mavjud resurslaridan foydalangan holda ta'lim muassasasining respublika va xalqaro miqiyosidagi seminar-treninglar, konferensiya va loyihalarda ishtirok etishlarini rag'batlantirish;

maktab jamoasining maktab imijini shakllantirishga bo'lgan tashabbuskorlik va qiziqishlari o'z istaklari bilan yuzaga kelishida rahbar imij yaratish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni yaxshi bilishi lozim. Bunda umumiy sa'y-harakatlarni to'g'ri taqsimlash, pedagogik jarayonni mazmunan boyita borish talab etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, umumta'lim maktablari imiji jamiyat taraqqiyotiga xissa qo'shadigan munosib kadrlar yetishtirining tayanch bo'g'ini sifatida inson kapitalini shakllantirish, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashga kuchli e'tibor qaratish bilan yuzaga chiqadi.

#### Adabiyotlar:

1. Национальная образовательная инициатива «Наша новая школа», утвержденная Президентом Российской Федерации Д. Медведевым 04 февраля 2010 г. Пр-271.
2. Пискунов М. С. Имидж образовательного учреждения: структура и механизмы формирования // Стандарты и мониторинг в образовании. 1999. № 5. С. 4-11
3. [https://t.me/xtv\\_press/1368](https://t.me/xtv_press/1368)



4. Муниципальная целевая программа «Развитие образования в городском округе Первоуральск («Наша новая школа») на 2011-2015 годы, утвержденная постановлением Администрации городского округа Первоуральск от 31.08.2011 г. №2173.

**РЕЗЮМЕ**

Ushba maqolada ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning asosiy jabhasi ekanligi, maktab imijini shakllantirishda mahalliy boshqaruv organlarining o'rni haqida, shuningdek, inson kapitalini boshqarishda ta'lim texnologiyalarining muhimligi tahlil etiladi.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье анализируется то, что система образования является основным аспектом развития человеческого капитала, роль органов местного самоуправления в формировании имиджа школы, а также значение образовательных технологий в управлении человеческим капиталом.

**RESUME**

This article analyzes the fact that the education system is the main aspect of human capital development, the role of local government in shaping the image of the school, and the importance of educational technology in human capital management.